

## JUGLANS REGIA (GREK YONG‘OG‘I)NING XALQ TABOBATIDA ISHLATILISHI VA KIMYOVIY TARKIBI

**Tursunboyev Xusayn Xabibullo o‘g‘li  
Abdiraximov Abdullajon Abdulbori o‘g‘li**

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yong‘oq daraxti va uni tibbiyotda ishlatilishi va kimyoviy tarkibi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ximalay, aldegidlar, efir moyi, alkaloidlar, C vitaminlari, karotin, fenolkarbon kislota.

### ABSTRACT

This article describes the walnut tree and its medicinal use and chemical composition.

**Keywords:** Himalayas, aldehydes, essential oil, alkaloids, C vitamins, carotene, phenolic acid.

Juglans regia (Grek yong‘og‘i) - O‘rta Osiyo, Kavkaz, Armaniston, Kavkazbo‘yi va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Kavkazda uni eramizdan oldin madaniylashtirilgan. Shotlandiya orollarini g‘arb tomonida Gretsiya yong‘og‘ini oq rangdagi turi mavjud. Hozirgi vaqtida Gretsiya yong‘og‘i kichik Osiyoda, Bolqon yarim orolida, Eronda, Afg‘onistonda, Ximalay va Tibetning G‘arb qismlarida, O‘rta Osiyoda va Kavkazda yovvoyi ko‘rinishda o‘sadi. U alohida yoki guruhlar bo‘lib o‘sadi. Grek yong‘og‘i – baland bo‘yli ko‘p yillik daraxt bo‘lib, yong‘oqdoshlar oilasiga mansub. Yong‘oq daraxti hosildor va o‘rtacha nam tuproqlarda yaxshi o‘sadi. Quruqlik va botqoqlikda rivojlanmaydi, yoshi o‘sgan sari tanasi yo‘g‘onlashib sovuqqa chidamliligi ortadi. O‘q ildizli. Shu bois kuchli shamolga bardoshli, issiqqa chidamlili daraxt. Bir yillik shohlari 30 daraja sovuqqa, yosh ko‘chati esa 25 daraja sovuqqa bardosh beradi, sovuq urmaydi. Respublikamizni bir qator tog‘larida, masalan Urgut va Omonqo‘ton tog‘larida, yong‘oqzorlar yastanib yotibdi.



Yong‘oqzorlar yomg‘ir va boshqa suvlarni tuproqda saqlash, tuproqni tutib turishda muhim rol o‘ynaydi. Eng muhimi, o‘pirilishlarning, tuproq yemirilishining oldini oladi.

Yong‘oqni yetishtirish kamxarj va foydali bo‘lib, maxsus parvarishni talab etmaydi. Yong‘oq yer tanlamaydi, lekin o‘rtacha namli bo‘lgan oxakli qumloqtoshloq yerlarda yaxshi o‘sadi. Daraxtlar mevaga kirmagan vaqtida qator orasiga boshqa qishloq xo‘jalik o‘simliklarini ekish mumkin. To‘laqonli xosil yig‘iniga



etmaydi. Yong‘oq yer tanlamaydi, lekin o‘rtacha namli bo‘lgan oxakli qumloqtoshloq yerlarda yaxshi o‘sadi. Daraxtlar mevaga kirmagan vaqtida qator orasiga boshqa qishloq xo‘jalik o‘simliklarini ekish mumkin. To‘laqonli xosil yig‘iniga

yetib kelinganda xarajatlar bir yilda qoplanadi. Mutaxassislar fikricha 1 tonna yong‘oqni yetishtirish, shuncha miqdordagi bug‘doy yoki uzumni yetishtirishga nisbatan arzondir. 5-8 yoshidan boshlab, ba’zi madaniy navlari 2-3 yoshidan boshlab hosil bera boshlaydi va bu qobiliyatni 500 yilgacha saqlab qoladi. Xosildirlik gektaridan 2.5-3.0 tonnani tashkil etadi. Yong‘oq eksporti bir qator mamlakatlarning eksportida katta o‘rin egallaydi. Masalan, 2002-yilda Moldova Yevropa Ittifoqi va jahonning 16 mamlakatiga jami 25,1 mln. dollar qiymatdagi 9630 tonna yong‘oq mag‘zi, 930 tonna qobiqli yong‘oq eksport qilgan va eksport maxsulotlari segmentida yong‘oq eksporti vino, tekstil va bug‘doy eksportidan so‘ng 4-o‘rinda turadi.

Bu daraxtning hamma qismlari inson salomatligi va xo‘jalikkagi extiyojlari uchun to‘liq va chiqitsiz ishlatalish mumkin. Bu daraxtning yog‘ochi mebel sanoati uchun qimmatli xomashyo hisoblanadi. Yong‘oq yog‘ochi tarkibidagi bakterisid va insektosid xususiyatga ega moddalar, masalan yuglon alkaloidi, yog‘och chirishini va xasharotlar tomonidan zaralanishini oldini oladilar. Bundan tashqari yog‘ochning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari, yuqori dinamik mustaxkamligi va yorilishga kam moyilligi, shuningdek yog‘och teksturasi mebel sanoati texnologik shartlarini to‘la qondiradi. Shuning uchun yong‘oq yog‘ochidan tayyorlangan mebellar sifatli va uzoq umrli bo‘ladi. Qo‘qon o‘rmon xo‘jaligida yong‘oq yog‘ochidan ishlab chiqarilayotgan turfa xil mebel buyumlari xorijnikidan qolishmaydi. Yurtdoshlarimiz ularni sevib xarid qilishiyapti.

O‘simlikning hamma qismlarida katta miqdorda biologik faol moddalar bor. Barglarida - aldegidlar, efir moyi, alkaloidlar, S, RR-vitaminlari, karotin, fenolkarbon kislotalar, oshlovchi moddalar, kumarinlar, flavanoidlar, antosianlar va xinonlar mavjud. Yong‘oq barglaridagi S - vitamin miqdori rivojlanish davomida asta-sekin oshib boradi va vigitasion davrda maksimumga yetadi.

Gulqo‘rg‘onida - organik kislotalar, C-vitamin, karotin, fenolkarbon kislotalar, oshlovchi moddalar, kumarinlar, xinonlar, A-provitamini va bakterisid xossasiga ega bo‘lgan bo‘yovchi yuglon moddasi mavjud.

Yong‘oq mevasini yog‘ochli qobig‘ida - fenolkarbonli kislotalar, oshlovchi moddalar va kumarinlar mavjuddir. Mag‘iz orasidagi to‘sinq po‘chog‘ida - steroidlar, fenolkarbon kislotalar, oshlovchi moddalar, kumarinlar mavjudligi aniqlangan. Mag‘zida - 18% oqsil, shakar, A-provitamini, S, E, P, K vitaminlari, V-guruh vitaminlari, mineral moddalar mayjud. Moyi - stearin, olein, linol, palmitin va linolen kislotalar gliseridlaridan tashkil topgan. Yetilmagan mevalar qobig‘ida S - vitaminni ko‘proq bo‘ladi. Miqdori bo‘yicha na’matak, qora smorodina va sitruslardan qolishmaydi. Shuning uchun yong‘oqning yetilmagan mevalari qobig‘idan vitaminli konsentratlar tayyorlanadi. Pishgan yong‘oq mag‘zida 58-77% eng yaxshi o‘simlik moyi bor. Unda linol, linolen, olein, pal’Vmitin, stearin, laurin, miristin, araxin, monova poli- to‘yinmagan, to‘yingan yog‘ kislotalar bordir. Bu moy antiskleroz xususiyatga ega bo‘lib, ishemik kasali, boshqa yurak-qon tomir kasalliklari va jigar kasalligida qo‘llaniladi.

Xromatografiya asosida yong‘oq, asal va 70% li etil spirtli nastoyka tekshirib ko‘rilganda, askorbin kislota, alkaloidlar, flavonoidlar, yod borligi aniqlandi. Sifat analizda yod borligi kumush nitrat orqali aniqlandi. Bunda sariq rangda cho‘chma tushdi. Ko‘rinib turibdiki yong‘oqning xamma qismlari foydali va zarur moddalarga boy bo‘lib chiqitsiz texnologiyaga asoslangan qishloq xo‘jalik o‘simligi sifatida Respublikamiz tog‘ va adir yonbag‘irlarida ekib keng qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. [http://www.gardenia.ru/quests/quest\\_659.htm](http://www.gardenia.ru/quests/quest_659.htm)
2. D.Grosser, W.Teetz: Einheimische Nutzhölzer (Loseblattsammlung), Herausgeber: CMA und AG Holz, 1985, [ISSN 0446-2114](#).
3. X.X.Xolmatov., O‘.A.Axmedov.Farmakognoziya. Toshkent, Ibn Sino NMB, 1995, 623 b.